

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VIZASI

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar faqat viza asosida O'zbekiston hududiga kirishlari va uning hududi orqali tranzit o'tishlari mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga vizalar O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarida viza talabnomasi (O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tasdig'i) asosida beriladi.

Viza talabnomasi O'zbekiston hududida doimiy yoki vaqtincha joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yozma iltimosnomasi asosida rasmiylashtiriladi.

Yuridik shaxslar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- Tashkilotning rasmiy blankida to'ldirilgan, o'rnatilgan namunadagi [Viza talabnomasi \(doc, 49.5 kb\)](#);
- evisa.mfa.uz saytidan olingan elektron anketa;
- Taklif qilinayotgan shaxsning, tashkilot rahbarining va tashkilotning hujjatlarini topshirishga vakolatli xodimining pasportlari nusxalari;
- Tashkilotning rasmiy hujjatlari nusxalari (litsenziya, sertifikat, guvohnoma va hk.);
- Tashkilot rahbari va vakolatli xodimining ishga joylashish to'g'risidagi buyruqlari nusxalari;
- Tashkilotning vakolatli xodimi nomiga berilgan ishonchnoma nusxasi;
- Viza Toshkent shahrining aeroportida olinishi mo'ljallangan holatlarda - aviachipta yoki bron nusxalari;
- Taklif qilinayotgan shaxsning ish joyidan ma'lumotnoma.

Jismoniy shaxslar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- O'rnatilgan namunadagi [Viza talabnomasi \(doc, 44.5 kb\)](#);
- evisa.mfa.uz saytidan olingan elektron anketa;
- Taklif qilinayotgan va taklif qilayotgan shaxslarning pasportlari nusxalari;
- Ichki ishlar organlari tomonidan olingan taklifnoma ruxsatining asli;
- Qarindoshlik aloqalarini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari (agar bo'lsa);
- Viza Toshkent shahrining aeroportida olinishi mo'ljallangan holatlarda - aviachipta yoki bron nusxalari.

Yuridik va jismoniy shaxslarning o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taqdim qilingan yozma iltimosnomalari 10 ish kuni davomida ko'rib chiqiladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar viza olish uchun O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- pasport yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs hujjati (ushbu hujjatlarning amal qilish muddati viza muddatidan kamida 3 oydan ko'p bo'lishi lozim);
- 2 nusxada to'liq to'ldirilgan viza talabnomasi;
- 2 ta rangli fotosur'at (pasport o'lchamida).

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tranzit viza olishlari uchun yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari ketayotgan davlatning vizasi va O'zbekistondan chiqib ketish sanasi tasdiqlangan yo'l hujjatlariga ega bo'lishlari lozim. Ushbu holda viza talabnomasini ko'rib chiqish muddati 3 kuni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik muassasasi yoki konsullik vakolatxonasi bo‘lmagan davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar vizani O‘zbekistonga kelib, Tashqi ishlar vazirligining «Toshkent» xalqaro aeroportidagi viza bilan ta‘minlash sektoridan olishlari mumkin. Buning uchun O‘zbekiston hududidagi taklif qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs o‘rnatilgan tartibda oldindan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga murojaat qilishi, Konsullik boshqarmasining Viza bilan ta‘minlash bo‘limidan tegishli tasdiq (shtamp) olishi va uni taklif qilinuvchi shaxsga yuborishi lozim. Mazkur tasdiq taklif qilinuvchi shaxs tomonidan aviachipta xarid qilish va o‘z davlatidagi pasport tekshiruvidan o‘tish paytida taqdim etiladi va ushbu hujjat asosida Tashqi ishlar vazirligining «Toshkent» xalqaro aeroportidagi viza bilan ta‘minlash sektorida unga viza rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq vizalarni rasmiylashtirish va berish uchun quyidagi konsullik yig‘imlari o‘rnatilgan:

a) Bir martalik vizalar uchun:

7 kungacha — 40 AQSh dollari;
15 kungacha — 50 AQSh dollari;
30 kungacha — 60 AQSh dollari;
3 oygacha — 80 AQSh dollari;
6 oygacha- 120 AQSh dollari;
1 yilgacha — 160 AQSh dollari.

Izoh: har bir qo‘shimcha kirishlar soni uchun tariflar stavkasi 10 AQSh dollariga oshiriladi.

b) Ko‘p martalik vizalar uchun:

6 oygacha- 150 AQSh dollari;
1 yilgacha — 250 AQSh dollari.

c) Tranzit vizalar uchun:

72 soatgacha — 40 AQSh dollari;
ikki martalik tranzit viza uchun — 50 AQSh dollari.

d) Guruh vizalari uchun (guruhda 16 yoshgacha bo‘lgan bolalardan tashqari kamida 10 kishi bo‘lishi lozim):

15 kungacha — 15 AQSh dollari (har bir kishi uchun);
30 kungacha — 25 AQSh dollari (har bir kishi uchun).

Bundan tashqari viza berish paytida viza rasmiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqiy harajatlarni qoplash uchun yig‘imlar undiriladi. Bunday yig‘imlarning miqdori viza rasmiylashtirilayotgan joyga bog‘liqdir (murojaat qilayotgan shaxsning fuqaroligidan qat‘iy nazar).

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi bilan tegishli ikki tomonlama shartnoma va kelishuvlar tuzgan davlat fuqarolariga nisbatan O‘zbekistonga kirish vizasini rasmiylashtirishning boshqacha tartibi joriy qilingan bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-oktabrdagi “Turkiya Respublikasi fuqarolari uchun viza tartibini soddalashtirish to‘g‘risida”gi 3347-sonli qaroriga bilan Turkiya fuqarolarining quyidagi toifalariga viza rasmiylashtirishning soddalashtirilgan tartibi joriy qilindi:

- O‘zbekistonga ishbilarmonlik maqsadida tashrif buyuruvchi Turkiya fuqarolari uchun 1 yilgacha muddatga ko‘p martalik vizalar 3 ish kuni davomida O‘zbekistonning xorijdagi muassasalari tomonidan taklif qilayotgan yuridik shaxsning O‘zbekiston Respublikasi TIVga murojaat etish talabi bekor qilingan holda rasmiylashtiriladi;

- O‘zbekistonga turist sifatida tashrif buyuruvchi Turkiya fuqarolari uchun 1 oygacha muddatdagi vizalar 3 ish kuni davomida O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari tomonidan turistik turvaucherlar yoki O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik tashkilotlarining taklifnomalarini taqdim etish talabi bekor qilingan holda rasmiylashtiriladi.

O‘ZBEKISTONNING ALOHIDA DAVLATLAR BILAN VIZA TARTIBI

1. Qirg‘iziston (60 kungacha), Armaniston, Belarus, Gruziya, Moldova, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Rossiya va Ukraina bilan ikki tomonlama vizasiz rejim o‘rnatilgan.

2. 2018-yilning 10-fevralidan 7 ta davlat – Isroil, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur, Turkiya va Yaponiya fuqarolari uchun 30 kunlik muddatga vizasiz tartib joriy etilgan.

Vizasiz tartib tashrif maqsadidan qat’iy nazar mazkur davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga 30 kungacha bo‘lgan muddatga tashrif buyurmoqchi bo‘lgan har qanday kategoriyadagi pasport (diplomatik, xizmat va fuqarolik pasportlari) egalariga nisbatan qo‘llaniladi. Mazkur davlatlar fuqarolari ushabu tartibda O‘zbekiston Respublikasiga amaldagi milliy pasport yoki xorijiy davlatlarga chiqishda foydalanadigan boshqa hujjat asosida kirishlari mumkin.

Vizasiz tartib yuqoridagi davlatlarda doimiy yashovchi fuqaroligi yo‘q shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Vizasiz tartib O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelgan kundan boshlab 30 kun davomida amal qiladi. Chet el fuqarosi 30-kun tugaguniga qadar O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketishi lozim. Chet el fuqarosi tomonidan 30 kunlik muddatning o‘tkazib yuborilishi xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi qoidalarini buzish deb hisoblanadi.

Chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida 30 kundan ko‘p muddatga kelmoqchi bo‘lsa belgilangan tartibda tashrif maqsadiga muvofiq ravishda O‘zbekiston Respublikasiga kirish vizasini olishi lozim bo‘ladi.

3. 2018-yil 10-fevraldan dunyoning 39 davlati (davlatlar ro‘yxati quyida keltirilgan) fuqarolari uchun hujjatlar qabul qilingan kundan tashqari 2 ish kuni davomida turistik vizani rasmiylashtirishning yengillashtirilgan tartibi joriy etildi va sayyohlik ruxsati (turvaucher) yoki O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taklif qilayotgan jismoniy/yuridik shaxslarning murojaat qilishi bekor qilindi.

Ilgari Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Fransiya, Shveysariya, Tailand, Chexiya va Polsha fuqarolari uchun ham vizalar rasmiylashtirishning yengillashtirilgan tartibi joriy etilgan edi.

Mazkur davlatlar sayyohlariga 1 oy muddatga ko‘p marotabalik, biznes vakillari uchun esa 1 yil muddatga ko‘p marotabalik vizalar beriladi. Bunda sayyohlik ruxsati (turvaucher) yoki O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taklif qilayotgan jismoniy/yuridik shaxslar tomonidan yo‘llangan murojaatlar taqdim etilishi talab qilinmaydi. Vizalar hujjatlar qabul qilingan kundan tashqari 2 ish kuni davomida rasmiylashtirib beriladi.

4. Tojikiston, Vengriya va Xitoy (30 kungacha), Koreya Respublikasi va Vetnam (60 kungacha), Braziliya, Latviya, Polsha, Ruminiya, Singapur, Slovakiya, Estoniya, Quvayt va Turkiya (90 kungacha) diplomatik passport egalari uchun vizasiz rejim joriy etilgan. Ushbu davlatlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalar yoki konsullik muassasalarida diplomatik pasport egasi bo‘lgan xodimlari, shuningdek, ularning oila a‘zolari xizmat muddati davomida O‘zbekiston Respublikasiga vizasiz kirish va bu yerda bo‘lish huquqiga egadirlar.

5. O'zbekiston va Yaponiya o'zaro kelishuv asosida vizalarni konsullik yig'implari undirmasdan beradilar.

2018-yil 10-fevraldan boshlab turizm vizalarini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan tartibi quyidagi davlatlar fuqarolari uchun joriy etilgan

1. Albaniya Respublikasi
2. Amerika Qo'shma Shtatlari
3. Andorra
4. Avstraliya
5. Birlashgan Arab Amirliklari
6. Bolgariya Respublikasi
7. Bosniya va Gersogovina
8. Chernogoriya
9. Daniya Qirolligi
10. Estoniya Respublikasi
11. Finlandiya Respublikasi
12. Gretsiya Respublikasi
13. Hindiston Respublikasi
14. Irlandiya
15. Islandiya
16. Kanada
17. Litva Respublikasi
18. Lixtenshteyn
19. Luksemburg Buyuk Gertsogligi
20. Makedoniya Respublikasi
21. Malta Respublikasi
22. Monako
23. Niderlandiya Qirolligi
24. Norvegiya Qirolligi
25. O'mon Sultonligi
26. Portugaliya Respublikasi
27. Quvayt davlati
28. Ruminiya
29. San-Marino Respublikasi
30. Saudiya Arabistoni Podshohligi
31. Serbiya Respublikasi
32. Shvetsiya Qirolligi
33. Slovakiya Respublikasi
34. Sloveniya Respublikasi
35. Vatikan
36. Vengriya
37. Xitoy Xalq Respublikasi (Xitoyning Gonkong maxsus ma'muriy hududi bilan birga)
38. Xorvatiya Respublikasi
39. Yangi Zelandiya

Izoh: O'zbekistonga kirish vizasini rasmiylashtirish va uni uzaytirish uchun Tashqi ishlar vazirligining [Diplomatik vakolatxonalarga xizmat ko'rsatish boshqarmasi xizmatlaridan](#) foydalanishingiz mumkin.